



KONFERENSIYA

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI
RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN
KREATIV G’OYALAR,
TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”**

@bestpublication |     | Street: Alisher Navoiy

FARG’ONA 2021



«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma’rifat markazi

“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA
QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 10-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE
KONFERENSIYASI
MATERIALLARI TO‘PLAMI
28-FEVRAL, 2021-YIL

10-SON

“DEVELOPMENT OF A MODERN EDUCATION SYSTEM AND CREATIVE
IDEAS FOR IT, REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL ON-LINE
CONFERENCE ON "SUGGESTIONS AND SOLUTIONS"

28 FEBRUARY 2021

PART-10



INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

doi digital object
identifier

Google
Scholar

CYBERLENINKA

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR,
TAKLIFLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 10-SONLI RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY ON-LINE
KONFERENSIYASI**

РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ	
Qodirova Malikaxon Qaxramonovna, Aglamova Shaxzoda Sobir qizi BOLALARDA MADANIY-GIGIENIK KO'NIKMAKLARINI TARBIYALASH SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA	174
N.X Tashpo'latova MA'NAVIY TARBIYADA MILLIY URF-ODATLAR VA QADRIYATLARNING O'RNI	178
Носирова Мавжудахон ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯНИ ТАЛАБАЛАРНИ ТАНҚИДИЙ ВА КРЕАТИВ ФИКРЛАШЛАРИНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ	181
Камолова Ш., Ахмедова Н., МУСТАҚИЛ ФИКРЛОВЧИ, ИЖОДКОР ШАХСНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА	184
N. Jumanova, N. Abduvalieva PSIXOLOGIYA FANINI O'QITISHDA FAOL O'QITISH USULLARINI TATBIQ ETISHNING AHAMIYATI	188
Турсунова Азиза Муминовна НОВЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ К ИЗУЧЕНИЮ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА	190
Халида Турсуновна Джалилова ТРАДИЦИОННАЯ МЕТОДИКА ПРОВЕДЕНИЯ ЗАНЯТИЯ В МАЛЫХ ГРУППАХ	194
Зоҳидова Машхура Ботирхоновна ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБ-ҲУНАРГА ЙЎНАЛТИРИШ	198

PSIXOLOGIYA FANIINI O’QITISHDA FAOL O’QITISH USULLARINI TATBIQ ETISHNING AHAMIYATI

N. Jumanova

Jizzax Davlat Pedagogika instituti o’qituvchisi

N. Abduvalieva

Jizzax Davlat Pedagogika instituti talabasi

Hozirgi paytda yoshlarning ko’ngliga to’g’ri yo’l topish, ularni ilmiylikka va ijodkorlikka yo’naltirish davrimizning asosiy vazifalaridan biri bo’lib kelmoqda. Fan va texnikaning yuqori darajada rivojlanishi, kompyuter va internet tizimining kirib kelishi, taklif qilinayotgan axborot miqdorining nihoyatda ko’pligi pedagog mehnatini o’ta mas’uldorligini, serqirraligini oshiradi va pedagog shaxsiga nisbatan yangicha talablar qo’yadi.

Ilm–fan va texnika–texnologiyalar sohasida erishilayotgan so’nggi yutuqlar bo’lajak mutaxassislar malakaviy darajasiga nisbatan bir qator talablarni qo’ymoqda. Ushbu talablardan biri bo’lajak mutaxassisni o’z sohasi bo’yicha yangiliklarni o’z vaqtida anglay oladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bunda ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalari va o’qitishning interfaol usullarilarini keng joriy etish bo’lajak mutahassislarning umumiy dunyoqarashining kengayishi, o’z kasbiga tegishli nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallashiga imkoniyat yaratiladi.

Ta’lim – tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika – psixologiya fanini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan ta’lim – tarbiyaga oid tajribalarni o’rganish va tadqiq qilish ishlari keng yo’lga quyildi.

Bugungi bo’lajak mutaxassislarimizni zamon talabi asosida tayrlash uchun yuqorida qayd etilgan maqsadga e’tibor berish asosida ulardagi intellektual salohiyatni muntazam ravishda rivojlan-tirib borishga erishish mumkin ekan. SHuning bilan birga bunday manbalar bo’lajak mutaxassislarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari-dan, o’quv-tarbiyaviy ishlarning interaktiv usullaridan foydalana oladigan qilib hamda o’zidagi pedagogik faoliyat mahoratini va ko’nikmalarini yanada takomillashtirish, rivojlantirish ustidagi faoliyatini ilmiy tashkil qila oladigan bo’lishida, shuningdek, ularni mustaqil ravishda o’z ilmiy dunyoqarashlarini yuksaltirishga, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, bugungi kundagi ta’lim tizimi zamonaviy mutaxassislarga bo’lgan talab asosida yaratilgan yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta’lim jarayonini eskirgan uslubda olib borishga yo’l qo’ymaydi. SHu sababli ham hozirda pedagogik innovatsiyani yaxlit murakkab jarayon sifatida qaralib, uning interfaol sifatlari, tarbiyaviy qismlari, funktsional tavsifi va uzviyligi izchil tadqiq qilinmoqda.

Faol o’qitish usullari va undan amaliyotda foydalanish natijalari talabalarning ilmiy dunyokarashlarini yuksaltirish uzluksizligining axborotli ta’minotini yaratishni taqozo qildi va uni amaliyotga keng joriy etish orqali bo’lajak mutaxassislarining ilmiy dunyokarashi uzluksiz ravishda yuksaltirib borishga erishiladi.

Faol o’qitish usullari xaqida fikrimizni yakunlar ekanmiz o’qituvchilarga shuni eslatishimiz kerakki, bu yerda ko’rib chiqqan o’qitish usullari o’ziga xos alohida xususiyatlarga ega. SHuningdek faol o’qitish usullaridan dars jarayonida foydalanish talabalar bilim, ko’nikma, malakalarni ongli ravishda va samarali o’zlashtirish imkonini beradi. Xozirgi davrda psixologiya fanlarini o’qitishdagi ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Psixologiya fanlarida zamonaviy texnologiyalarni qo’llanilishidan maqsad dars jarayoniga hamda o’qituvchi va o’quvchi faoliyatiga yangilik kiritishdan iborat.

Pedagog va o’quvchilarning xamkorlikdagi faoliyatini shakllantirishdir. Buning uchun o’qituvchi darsning texnologik xaritasini to’zib olishi lozim. Xaritada dars jarayoni yaxlit xolda aks etgan bo’lishi maqsad, vazifa kafolatlangan natija bo’lishi kerak. Texnologik xaritaning to’zilishi o’qituvchini darsning kengaytirilgan konspektni yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o’z aksini topadi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda faol uslublarini qo’llashni taqozo etadi. O’qitish jarayonida talabalarga shahs sifatida qaralishi turli pedagogik tehnologiyalar iterfaol metodlarni qo’llanishi mustaqil fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijobiy yondoshishga, mas’uliyatni sezish, tahlil qilish, adabiyotlardan unumli foydalanish kasbga bo’lgan qiziqishini kuchaytiradi. Biz o’lardan ba’zilar haqida to’htalib o’tamiz, ushbu zamonaviy metodlar o’qitishning samarasini oshirishga, talabalarda mantiqiy, aqliy, mustaqil fikrlashi shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, raqobatbardosh yetuk mutahassis bo’lishlariga ijobiy fazilatlarga boy ko’p omilli shaxs bo’lishiga yordam beradi.